

“SARHAD ORTIDAGI O’ZBEKLAR: AFGONISTONDAGI MADANIY MEROS”

Sayilova Mastura Ashuralievna

Termiz davlat Universiteti,

*Etnologiya, etnografiya va antropologiya yo’nalishi
magistratura I-bosqich talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Afg’onistonda istiqomat qilyotgan O’zbeklarning adabiy merosi, ularning milliy-madaniy rivojlanishi xamda adabiyot orqali etnik o’zlikni saqlab qolish jarayonlari yoritilgan. Afg’oniston o’zbeklari asrlar davomida turli siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga qaramasdan, keng adabiy va ma’naviy meros shakllantirgan. Maqolada ularning she’riyat, nasr va og’zaki ijodi misolida milliy ma’naviyatni saqlashdagi o’rni taxlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, etnografik kuzatish va qiyosiy tahlil usullari qo’llanildi. Natijada afg’oniston o’zbeklarining adabiy merosi nafaqat mahalliy madaniy hayot, balki butun turkiy adabiyotning ajralmas qismi sifatida namoyon bo’lishi asoslاب berildi.

Kalit so’zlari: Afg’oniston o’zbeklari, adabiy meros, og’zaki ijod; yozma adabiyotlar, milliy o’zlik, madaniy an’analar, epic dostonlar, xalq qo’shiqlari, an’anaviy shoirlar, adabiy muxit, kiyinish madaniyati

Abstract: This article explores the literary heritage of Uzbeks living in Afghanistan, focusing on their cultural development and the preservation of ethnic identity through literature. Despite centuries of political and social challenges, Afghan Uzbeks have created a rich literary and spiritual tradition. The article analyzes the role of poetry, prose, and oral literature in safeguarding national identity. The research employs historical-analytical, ethnographic observation, and comparative analysis methods. The findings highlight that the literary heritage of Afghan Uzbeks represents not only the cultural life of local communities but also constitutes an integral part of the broader Turkic literary tradition.

Keywords: Uzbeks of Afghanistan, literary heritage, oral literature, written literature, national identity, cultural traditions, epic poetry, folk songs, traditional poets, literary environment, clothing culture

Kirish

Har bir xalqning madaniyati uning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy qiyofasi va milliy o’zligini belgilab beruvchi muxim omillardan xisoblanadi. Madniyat xalqning kundalik turmush tarzi, urf-odat va an’analari, ma’naviy merosi xamda ijtimoiy xayot tarzini o’z ichiga oladi. Afg’oniston xududida asrlar davomida yashab kelayotgan o’zbeklar ham o’ziga xos va boy madaniy merosga egadir. Ularning madaniyati og’zaki

ijod,adabiyot,musiqa, xalq o'yinlari, urf-odatlar, kiyinish an'analari va turmush tarzida yaqqol namoyon bo'ladi.

Tahlil va muhokama

Afg'oniston o'zbeklari asosan mamlakat shimalida yashaydilar. Ular tarixan Markaziy Osiyo madaniy maydoni bilan uzviy aloqada bo'lib kelganlar. Shu bois xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan Alpomish yoki Go'ro'g'li, milliy bayramlar-Navro'z, xayit kabi va bundan tashqari an'anaviy kiyim-kechak va oilaviy marosimlar ularning hayotida muxim o'rinni tutadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi- Afg'oniston O'zbeklarining madaniy hayotini xar tomonlama tahlil qilish, ularning an'anaviy turmush tarzi, adabiy va og'zaki ijodi, kiyinish madaniyati, urf-odatlari va madaniy merosini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Afg'oniston o'zbeklari orasida saqlanib kelayotgan og'zaki ijod va adabiy merosni tahlil qilish, milliy urf-odatlar va oilaviy marosimlarni o'rganish, kiyinish madaniyati va turmush tarzini milliyligini asrash axamiyati, Afg'onistondagi O'zbeklar madaniyatining umumturkiy madaniy jarayoniga qo'shgan xissasini baxolash.

Tadqiqot obekti- Afg'onistondagi O'zbek jamolarini madaniy xayoti

Tadqiqot predmeti-ushbu madaniy merosning milliy o'zlik va ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni

Ilmiy yangilik shundaki, Afg'onistonda O'zbeklarining madaniyati ilk bor adabiy meros, urf-odat va kiyinish madaniyati kabi turli jixatlar asosida kompleks tarzda taxlit etilmoqda.

Afg'onistondagi siyosiy va ijtimoiy beqarorlikga qaramay, o'zbeklar o'z milliy madaniyatini asrab qolish va avloddan avlodga yetkazishni davom etmoqdalar. Va bazi urf-odatlari bir biri bilan ayni vaqtida uzviy bog'langan.

Xususan: kiyinish madaniyatida buni yaqqol ko'rish mumkun. Aynan kiyinish madaniyatida afg'on-o'zbek an'analari birlashuvi va uning aloxida o'rinni egallaganini aniqlash mumkun (misol uchun:etik, maxsi, kovush, sandal). Erkaklar do'ppi, chopon, jelak kabi kiyimlarni tanlashsa, ayollar uy ichida naqshli, yorqin bezakli kiyimlarni tanlashadi. Katta yoshli ayollar qadimiy adres, atlas matolarini maxsus kunlar uchun saqlab qo'yiladi.

Bir qancha o'zbek oilalari hali-xamon gilam to'qish, ip yigirish, kashtachilik kabi kasblarni avloddan-avlodga meros qilib qoldirishmoqda. Kiyinish madaniyatida atlas, adres kabi matolar deyarli muomaladan chiqib ketganligiga qaramay bu odatlardan batamom unutilgan deb aytib bo'lmaydi.

Albatta milliylikni saqlab qolishning eng muxim omillaridan biri bu xalq og'zaki ijodi. Ayni vaqtida Afg'oniston o'zbeklari orasida bir muncha dostonlar(Alpomish, Go'ro'g'li), Navro'z qo'shiqlari, hikoyalar saqlanib qolgan. Bazi to'y marosimlarida ayollar tomonidan aytishuvlar, yoki navro'z qo'shiqlari kuyylanadi. Bundan tashqari

Alisher Navoiy, Xusayn Bayqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab kabi adabiyot namoyandalarni nafaqat o'zbekistonda balki Afg'oniston daham sevib mutoala qilishadi. Siyosiy jarayonlar sabab XIX asrdan boshlab Afg'onistonda o'zbek adabiyoti unutula boshlagan edi, mustaqil Afg'oniston davlati tashkil topganidan keyin O'zbek adabiyoti yana qayta jonlana boshlandi.

Afg'onistondagi O'zbeklar urf-odati xam juda boy. Bolalarga sunnat marosimlari, nikox marosimi (qiz uyiga sovchi bo'lib boorish), motam marosimlari ayniqsa ajralib turadi.

Afg'onistondagi o'zbeklar milliy musiqa va raqsni malum miqdorda saqlab qolishgan. Bazi uylarda hali-hamon dutor va g'ijjaklar saqlanib kelinadi. Bazi oilalar esa milliy raqs an'analarini unutishmagan va avloddan avlodga qoldirmoqda. Xususan kichik to'y marosimlarida ayollar o'rtasida raqs va qo'shiqlar yoki aytishuvlar amalga oshiriladi.

Xulosa

Sarxad ortidagi o'zbeklar madaniy merosi juda boy va rang-barang bo'lib, xalqning tarixiy xotirasi va milliy o'zligini saqlab qolishda muxim axamiyat kasb etadi. Yozma adabiy meros esa buyuk mutafakkir va shoirlar asarlari orqli ma'naviy olamning boyligiga xizmat qilmoqda. Urf-odat va marosimlar, kiyinish madaniyati va xunarmandchilik turlari O'zbeklarning turmush tarzi va madaniy an'analarini namoyon etuvchi asosiy jixatlardan xisoblanadi. Musiqiy meros esa xalqning ma'naviy dunyosini ifodalash bilan birga, ijtimoiy xayotda birlik ramzi sifatida xizmat qilmoqda.

Afg'oniston O'zbeklari madaniy merosini o'rganish nafaqat etnografiya fanida balki umummilliy ma'naviy merosni asrab-avaylash va keying avlodga yetkazish uchun ham dolzarb axamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Ashirov. Etnografiya-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014-247-b
- 2.I.Jabborov Etnografiya Toshkent: o;qituvchi,2002-137-b
- 3.Mannonov.A "Uygonayotgan adabiyotlar" Forum:international journal of interpretation and Translation, 2022
- 4.Nazarov N Afg'oniston o'zbeklari – Toshkent Fan, 2011-127-b
- 5.Rahmonov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: Fan,2010
- 6.Saidov S. O'zbek milliy kiyimlari tarixi.-Toshkent: san'at,2012
- 7.Qodirov N. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosi. –Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015